



**O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘lim tizimi
(2020/2021- o‘quv yili boshida)**

Bugungi kunda ta‘lim inson faoliyatining barcha sohalarida yangi texnologiyalarni joriy etish, raqobatbardoshlikni oshirish, turmush darajasini ko‘tarishning muhim omiliga aylanib bormoqda.

Hozirgi kunda yangi bilimlarni amalda qo‘llay oladigan, muayyan kasb sohasidagi innovatsion imkoniyatlar ko‘lamini tushunadigan kadrlarga talab yuqori. Bular nafaqat joriy xo‘jalik va ishlab chiqarish masalalarini malakali hal qiladigan, balki to‘g‘ri qaror qabul qiladigan tahliliy qobiliyatga ega, yuqori darajali mutaxassislar bo‘lishi lozim. Oliy ta‘lim tizimi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta‘minlaydi. Oliy ta‘lim ikki bosqichga: Bakalavriat bosqichi–mutaxassisliklar yo‘nalishi bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta‘lim muddati kamida to‘rt yil davom etadigan tayanch oliy ta‘limdir. Magistratura bosqichi–aniq mutaxassislik bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta‘lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta‘limdir.

**Oliy ta‘lim muassasalarining 2020/2021- o‘quv yilida
hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda**






Jizzax viloyatida oliy ta'lim tizimida 3 ta oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, ularning tarkibida 1 ta universiteti filiallari faoliyat olib bormoqda.

Oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish ta'lim sifatini oshirish, tizimiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish maqsadida davlatimiz tomonidan oliy ta'lim tizimining huquqiy bazasi yanada takomillashtirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori qabul qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jixatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida, Respublika Prezidentining 2019 yil 8 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni tasdiqlandi.



2020/2021- o'quv yilida oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan talabalarning hududlar kesimida taqsimlanishi, kishi

bakalavriyat




Oliy ta'lim muassasalarida 2020/2021- o'quv yili boshida jami 23,4 ming kishi talabalikka qabul qilinib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davrida 6,0 ming kishini tashkil etgan. Qabul qilingan talabalarning 16,2 ming nafari kunduzgi 6,7 ming nafari sirtqi ta'lim shakliga qabul qilindi.

Oliy ta'lim bakalavriat bosqichining asosiy ko'rsatkichlari

2020-yilda bakalavr darajasiga ega bo'lgan talabalar soni 18,0 ming nafarni tashkil etib, ularning 4,0 ming nafari davlat grantlari asosida ta'lim olgan. 2020-yilda bakalavriat bosqichini 3,9 ming nafar talabalar bitirdi. Bitirganlarning 0,9 ming nafari qizlar (32,1 %) tashkil etgan. 2021-yilda bakalavriatni 5,0 ming nafar talaba bitirishi kutilmoqda, ularning 2,0 ming nafari (30,1 %) davlat granti asosida tahsil olayotgan talabalarni tashkil qiladi.

2020/2021-o'quv yili boshiga oliy ta'lim muassasalarida jami 23,4 ming nafar talaba tahsil olmoqda, ulardan 10,7 ming nafari (50,0% ni) qizlar tashkil etadi. Talabalarning 22,0 % i davlat grantlari asosida, 78,0 % i to'lov-shartnoma asosida tahsil olmoqda.


2020- yilda Jizzax viloyatida 1 ta universitet filiali faoliyat yurita boshladi. Ushbu filialda jami 0,8 ming nafar talabalar tahsil olmoqda.



Oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichiga talabalar qabuli

2020/2021-o'quv yili uchun magistraturaga jami 472 nafar talaba qabul qilingan. Talabalardan, 22,2 % i (166 nafari) davlat granti asosida, 77,8 % i (306 nafari) to'lov shartnomasi asosida qabul qilingan. 2019/2020- o'quv yilida magistraturaga jami 252 nafar qabul qilingan talabalardan, 45,9 % i (56 nafari) davlat granti asosida, 54,1 % i (96 nafari) to'lov shartnomasi asosida qabul qilingan.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarning jinsi bo'yicha taqsimlanishi



Oliy ta'lim muassasalarining bakalvriat bosqichida ta'lim olayotgan talabalarning ta'lim yo'nalishlari bo'yicha taqsimlanishi

2020/2021- o'quv yili boshida oliy o'quv yurtlarida jami tahsil olayotgan bakalvriat bosqichida talabalar soni 22,9 ming nafarga yetgan bo'lib, gumanitar sohada 13,4 ming nafar talaba, Ijtimoiy soha, iqtisodiyot va huquq yo'nalishlarida 1.0 ming nafar talaba, ishlab chiqarish texnikasi sohasi yo'nalishi 7,6 ming nafar talaba, qishloq va suv xo'jaligi 0,2 ming nafar talaba, xizmatlar sohasida 0,7 ming nafar talaba tahsil olmoqda.


Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan talabalar



2020/2021- o'quv yili boshida talabalarning ta'lim turlari bo'yicha taqsimlanishi



Mamlakatimizning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ta'limning barcha bo'g'ini, ayniqsa, oliy ta'lim tizimida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Bu jihatlar ta'lim sifatini tubdan takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarida yoshlarning qamrovini tobora oshirish kabilarda o'zining yorqin ifodasini topmoqda. Jizzax viloyati bo'yicha 3 ta oliy ta'lim muassasalarida jami 22,9 ming nafar talabadan 16,2 ming nafari (79,2%) kunduzgi ta'lim shaklida, 6,7 ming nafari (20,8%) sirtqi ta'lim shakli bo'yicha tahsil olmoqda.



Oliy ta'lim muassasalari talabalarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi
(2020/2021- o'quv yili boshida)

	Jami	Shu jumladan:								
		17 yosh va undan kichik	18 yosh	19 yosh	20 yosh	21 yosh	22 yosh	23 yosh	24 yosh	25 yosh va undan katta
JIZZAX VILOYATI	23391	40	2353	3465	3609	1955	1906	1028	606	8429
Jizzax shahar	23391	40	2353	3465	3609	1955	1906	1028	606	8429

Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olinishi va ular o'rtasida sog'lom raqobatni kuchaytirish asosiy vazifa hisoblanadi. Jizzax viloyatida oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan 17 yosh va undan kichik talabalar soni 40 nafar bo'lib, jami talabalar sonining 0,2% ni tashkil etsa, 25 yosh va undan katta bo'lgan talabalar soni 8429 nafar bo'lib, jami talabalar soninig 27,1% ni tashkil etadi.



Oliy ta'lim muassasalarining bakalvriat bosqichiga qabul natijalari

(2020/2021- o'quv yili uchun)

	Ta'limning barcha turlari			Kunduzgi ta'lim shakli		
	Topshirilgan arizalar	Qabul qilindi	Konkurs, kishi/100 o'ringa	Topshirilgan arizalar	Qabul qilindi	Konkurs, kishi/100 o'ringa
JIZZAX VILOYATI	70333	8079	871	37037	5457	679
Jizzax shahar	70333	8079	871	37037	5457	679

Oliy ta'lim muassasalarining bakalvriat bosqichiga qabul natijalari tahlilidan ko'rinadiki, ta'limning barcha turlariga topshirilgan arizalar soni 70333 tani tashkil etdi. Kunduzgi ta'lim shakliga topshirilgan arizalar soni 37037 ta bo'lsa, sirtqi ta'lim shakliga esa 32755 ta ariza topshirilgan.

(davomi)

	Sirtqi ta'lim shakli			Kechki ta'lim shakli		
	Topshirilgan arizalar	Qabul qilindi	Konkurs, kishi/100 o'ringa	Topshirilgan arizalar	Qabul qilindi	Konkurs, kishi/100 o'ringa
JIZZAX VILOYATI	32755	2571	1274	541	51	1061
Jizzax shahar	32755	2571	1274	541	51	1061

2020/2021- o'quv yili boshida Jizzax viloyatida oliy ta'lim muassasalarida ta'limning barcha turlari bo'yicha bakalavriat bosqichiga jami abuturentlar tomonidan 70333 ta ariza topshirilgan bo'lib, Jizzax viloyati bo'yicha 100 o'ringa 871 nafar kishini tashkil etgan.

2020/2021- o'quv yili boshida Jizzax viloyatida oliy ta'lim muassasalarida jami 1034 nafar professor-o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) faoliyat yuritmoqda. Shundan 352 nafari ayollar (29,1%) ni tashkil etsa, 682 nafari erkaklar (70,9%) dan iborat.



2020/2021-o'quv yili boshiga Jizzax viloyatida oliy ta'lim muassasalarida bitta o'qituvchiga o'rtacha 23 nafar talaba to'g'ri keladi. Shu jumladan viloyatlar kesimida eng yuqori ko'rsatkichni ham Jizzax viloyatida qayd etildi.

**Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qutuvchi xodimlari soni, kishi
(2020/2021- o'quv yili boshida)**

	Asosiy (shtatdagi) xodimlar	Asosiy (shtatdagi) xodimlardan ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega bo'lganlar:				
		Ilmiy darajaga:			Ilmiy unvonga:	
		Fan doktori	Fan nomzodi	Falsafa doktori	Professor	Dotsent
JIZZAX VILOYATI	1034	50	161	77	35	165
Jizzax shahar	1034	50	161	77	35	165

Viloyatimizda oliy ta'lim muassasalarida jami 1034 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat yuritayotgan bo'lib, fan doktori ilmiy darajasiga ega 50 nafarni, fan nomzodlari 161 nafarni hamda falsafa doktori 77 nafarni tashkil etmoqda.

Shuningdek ilmiy unvoni bo'yicha professorlar 35 nafarni, dotsentlar 165 nafarni tashkil etadi.

Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

**72-221-51-36
72-222-81-36**

